



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

Markaz kengashining 2025-yil 27-fevraldagi

1-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida

Markaz kengashining 2025-yil 27-fevraldagi 1-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida **buyuraman**:

1. Markaz kengashining 2025-yil 27-fevraldagi 1-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Markaz kengashi qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun muddatda Markaz kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Markaz kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Markaz direktori



A.Ibragimov

Samarqand sh.
1 mart 2025 yil.
21-son

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi
Q A R O R I**

*2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri*

1/1-son

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va
umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining
malakasini oshirish kurslari o'quv reja va
dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 402-sonli
buyrug'ining ijrosi yuzasidan amalga
oshirilayotgan ishlar to'g'risida**

Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 402-sonli buyrug'ining ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov so'zga chiqdi: – Pedagogik mahorat markazi o'quv yilining boshida mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq 2025-yilda malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan Samarqand viloyatidagi maktabgacha va maktab ta'limi tizimi rahbar pedagog va mutaxassis xodimlarining kontingenti shakllantirildi. Mazkur kontingent o'z ichiga nafaqat davlat umumta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki xususiy ta'lim tashkilotlar hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi hamda ijtimoiy himoya agentligi tizimidagi barcha ta'lim tashkilotlarini qamrab olgan bo'lib, 2025-yil oy va tumanlar kesimida jami 11699 nafar rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlar malakasi oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur buyruqning 4-29 va 40-64 ilovalari yuzasidan "Rivojlantiruvchi va Yuksaltiruvchi" kurslarning o'quv reja va dasturlari barcha kafedralarga yetkazildi. Mazkur ilovalarga muvofiq:

"Ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar" moduli ijtimoiy fanlarga berildi. "Ta'limda ijtimoiy hissiy yondashuvlar", "Ta'lim nazariyalari va ularning amaliyotga tatbiqi", "Ta'limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv" modullari va "Zamonaviy ta'lim paradigmalari" modulining 2 soat nazariy qismi pedagogika fanlari uchun ajratildi.

"Umumkasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish" blogidagi "Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro hamkorlik", "Zamonaviy ta'lim paradigmalari" modulining 4 soat amaliy qismi "O'quv jarayonini samarali tashkil etish", "Formativ va summativ baholash tamoyillari" modullari hamda uchinchi "Fanni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" blogining barcha modullari ixtisoslik fanlari uchun ajratildi.

Ikkinchi blokda "Ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" moduli AKT fanlari uchun ajratildi.

Shunga binoan Pedagogik mahorat markazining o'quv yuklama va tarifikatsiyalari shakllantirildi.

Yangi o'quv rejalarga tegishli materiallar bilan ishlash yuzasidan Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan tashkil etilgan o'quv seminarida ishtirok etgan 5 nafar Markaz professor-o'qituvchilari tomonidan 2 va 3-blokning o'quv materiallarini dars jarayonlarida foydalanishning samarali usullari bo'yicha professor-o'qituvchilar uchun 3 kunlik seminar, ma'ruza va trening mashg'ulotlari tashkil etildi.

Mazkur seminar treningning birinchi kunida Fayzullayeva Gulchehra Sharipboyevna tomonidan birinchi blokning "O'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi", "Ta'lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi", "Ta'limda inkluziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv" modullarini o'qitish bo'yicha ochiq muloqot soati tashkil etildi hamda A.Abdullayev va M. Fayziyeva tomonidan mazkur modullar bo'yicha amaliy topshiriqlar tahlili amalga oshirildi.

Mazkur seminar treningning ikkinchi kunida V.Turopov tomonidan ikkinchi blokning "Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro hamkorlik" modulidagi mavzularini o'qitilishi bo'yicha tavsiyalar yuzasidan seminar trening mashg'ulotini tashkil qilgan bo'lsa, "Zamonaviy ta'lim paradigmalari" modulidagi mavzularni o'qitilishi bo'yicha trening mashg'ulotini amalga oshirdi.

Mazkur seminar treningning uchinchi kunida markaz esa ikkinchi blokning "O'quv jarayonini samarali tashkil etish" modulidagi mavzularni o'qitish bo'yicha tavsiyalar berildi va ular M. Fayziyeva tomonidan tashkil qilingan amaliy topshiriqlar asosida mustahkamlandi.

Ikkinchi blokning "Formativ va summativ baholash tamoyillari" modulidagi mavzularni o'qitish bo'yicha A.Abdullayev tomonidan seminar-trening mashg'uloti tashkil etildi.

Abdulla Avloniy milliy tadqiqot instituti tomonidan taqdim etilgan o'quv materiallari markaz professor-o'qituvchilar tomonidan yo'nalishlar kesimida qayta tahlil qilinib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lgan materiallar moslashtirildi. Ma'lumotlar va topshiriqlar bilan boyitildi. Shuningdek, Prezident maktablarida o'quvchilarni o'qitish, kasb-hunarga yo'naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalarni umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq etish doirasida bir qancha ishlar amalga oshirilishi rejalashtirildi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini

oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 402-sonli buyrug'ining ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov va Z.Pardayevga:

- yo'nalishlar kesimida berilgan modullarning majmua, texnologik xarita, taqdimotlarning mavzularga muvofiqligini tekshirish;

- yangi o'quv rejalarga tegishli materiallar bilan ishlash yuzasidan tashkil etilgan seminarda berilgan ma'lumotlardan darslarda unumli foydalanish e'tiborga olinsin;

- professor-o'qituvchilarning mashg'ulotlarga tayyorgarlik holatini doimiy monitoring qilish;

- o'quv mashg'ulotlariga foydalaniladigan o'quv metodik, materiallar majmuini yaratish;

- oylar kesimida ma'ruzalarda kiritilgan ma'lumotlarni aniqlash vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosi nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi
Q A R O R I**

*2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri*

1/2-son

**Pedagogik markaz va viloyat umumta'lim
maktablarida "Kasbiy rivojlantirish kuni" va
"Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni tashkil
etish holati to'g'risida**

Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramovning "Pedagogik markaz va viloyat umumta'lim maktablarida "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni tashkil etish holati to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramov so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-sonli Qaroriga asosan Pedagogik mahorat markazida bir qator ishlar amalga oshirildi. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-sonli buyrug'iga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablari tabiiy va aniq fanlari o'qituvchilari uchun 2024-yil oktabr oyidan boshlab 1-, 3- haftalarida KRK va 2-, 4- haftalarida KRS'lari tashkil etib kelinmoqda.

"Kasbiy rivojlanish kuni" doirasida har bitta fan bo'yicha tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalari tanlandi va ushbu muassasalarda o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

"Kasbiy rivojlanish soati" doirasida fan metodika birlashmalari va mentor-o'qituvchilar tomonidan o'qituvchilarning darslari tahlil qilinib, ularga metodik yordam ko'rsatilib, kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berib borilmoqda.

Viloyatda Kasbiy rivojlanish kunini o'tkazish maqsadida aniq fanlar (matematika va informatika) va tabiiy fan (fizika, biologiya, kimyo, geografiya) yo'ynalishida jami 17 nafar master-trener, 96 nafar mentor-trener, 2526 nafar yetkachi o'qituvchilari va 10223 nafar fan o'qituvchilari jalb etildi.

Aniq fan (matematika va informatika) yo'nalishida:

45 ta tayanch maktablari, 4 nafar master-trener, 48 nafar mentor-trener, 1263 nafar yetakchi o'qituvchi, 4817 nafar fan o'qituvchilari;

Tabiiy fan (fizika, biologiya, kimyo, geografiya) yo'nalishida:

45 ta tayanch maktablari, 4 nafar master-trener, 48 nafar mentor-trener, 1263 nafar yetakchi o'qituvchi, 5406 nafar fan o'qituvchilari.

Xalqaro ta'lim tashkilotlari trenerlari tomonidan 3 ta hududda 96 nafar mentor-trenerlar o'quvlari tashkil etildi. Jumladan:

Pedagogik mahorat markazida: Samarqand shahar, Toyloq, Urgut, Nurobod, Bulungur, Jomboy, Pastdargom, Samarqand tumanlari mentor-o'qituvchilari;

Kattaqo'rg'on shahar 2-maktabida: Kattaqo'rg'on shahar, Kattaqo'rg'on, Paxtachi va Narpay tumanlari mentor-o'qituvchilari;

Ishtixon tumani 8-maktabida: Ishtixon, Payariq, Qo'shrabot, Oqdaryo tumanlari mentor -o'qituvchilari uchun o'quvlar tashkil qilindi.

Viloyatda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati"ni tashkil etishda ishtirokchilarning (yetakchi o'qituvchilarning va fan o'qituvchilarning) davomatining nazorati GoogleSheet platformasi orqali tashkil etildi. Mentor va yetakchi o'qituvchilarning o'tilayotgan mavzular (1-, 2- modullar) bo'yicha taqdimotlar va kerakli materiallar bilan ta'minalab borishda har bir tuman (shahar)ga metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlaridan mas'ullar belgilandi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 31-yanvardagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim va xorijiy til (ingliz tili) fani o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlarini tashkil etish to'g'risida"gi 34-son buyrug'iga asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xorijiy til (ingliz tili) fani o'qituvchilari uchun 2025-yil 31-yanvardan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun 15-fevraldan boshlab "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlari tashkil etish yo'lga qo'yildi.

Mazkur buyruq ijrosi doirasida ingliz tili yo'nalishi 4 nafar master-trenerlar, 49 nafar mentor-trenerlar, 1228 nafar yetakchi o'qituvchilar, 4165 nafar fan o'qituvchilari, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha 4 nafar master-trenerlar, 49 nafar maentor-trenerlar, 1266 nafar yetakchi o'qituvchilar va 11655 nafar fan o'qituvchilari malaka oshirishning muqobi shakli, ya'ni "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlarida malaka oshirmoqda.

Shu bilan birgalikda, vazirlikning 2024-yil 8-noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i asosida 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlari joriy etildi.

Mazkur o'quvlarda Samarqand viloyati bo'yicha 2 nafar master-trenerlar, 34 nafar mentor-trenerlar, 731 nafar yetakchi pedagoglar, 10838 nafar pedagog xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Pedagogik mahorat markazi xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida Ilmiy-metodik kengashning 2024-yil 3-maydagi "Kasbiy rivojlantirish kuni"ni belgilash va chora-tadbirlar ishlab chiqish to'g'risida"gi 2-son yig'ilishi 2/3.3-qarori asosida 2024-yil davomida haftaning har juma kunlari 37 marta kasbiy rivojlantirish kunlari tashkil qilindi. Bunda ilmiy va o'qitish

metodikalariga doir zamonaviy tadqiqotlar yuzasidan ma'ruzalar, o'quv, ilmiy va metodik adabiyot sharhi, trening mashg'ulotlari "Samarqand pedagogika maktabining shakllanishi va va rivojlanishi" ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida izlanishlar natijalari, uzluksiz kasbiy rivojlanishning zamonaviy modellari hamda sohadagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar taqdimoti hamda darslarni tashkil etish mexanizmi bo'yicha axborotlar berib borildi.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

QAROR QILADI:

1. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramovning "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni tashkil etish holati to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramov va Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i H.Bekmirzayevga:

- fanlar kesimida tashkil etilayotgan "Kasbiy rivojlantirish kuni" tadbirlarini tashkil etilishiga jiddiy e'tibor qaratish;

- "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlari o'quv jarayonlarining sifatli tashkil etilishini ta'minlash;

- "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlari uchun dars ishlanmasi, metodik tavsiyanomalar ishlab chiqish va ularni maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlariga yetkazish;

- "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlarida namunali deb topilgan mashg'ulotlarni video shaklida ommalashtirish choralarini ko'rish;

- "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soati" tadbirlarining tashkil etilishi holatini hududlarga chiqqan holda tanlanma asosda o'rganish;

- belgilangan hisobot shakllarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga o'z muddatida taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

3. "Kasbiy rivojlantirish kuni" tadbirlarini tashkil etilishida fan yo'nalishlari kesimidagi mas'ul kafedra mudirlari trener o'qituvchilarni belgilangan tartibda, vaqtida ishtirok etishini ta'minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri

1/3.1-son

**Kengash a'zolari tarkibiga
o'zgartirish kiritish to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "“Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida” gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Kengash a'zolari tarkibini quyidagicha tanishtirdi:

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi a'zolari
RO'YXATI**

№	Familiyasi, ismi sharifi	Ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi
1	Ibragimov A'lamjon Amrulloevich	Pedagogika markaz direktori, kengash raisi
2	Murodov Sarvar Saydullo o'g'li	Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari (a'zo)
3	Xurramov Anvar Vafakulovich	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari (a'zo)
4	Raximqulova Maxbuba Baxranovna	Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri (a'zo)
5	Fayzullayeva Gulchehra Sharipboyevna	Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri (a'zo)
6	Tagayev Ganisher Xasanovich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri (a'zo)
7	Samyayev Anvar Qadirovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri (a'zo)
8	Raximova Mohinabonu Abduxamid qizi	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri v.b. (a'zo)
9	Davronov Pirnazar Ziyatovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi professori (a'zo)
10	Usmonov Bahodir Islomovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi dotsenti (a'zo)
11	Alimova Dilbar Xalimovna	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti (a'zo)
12	Haydarov Komil Donaboyevich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi v.b.professori (a'zo)
13	Suvonova Kamola Raimqul qizi	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti (a'zo)
14	Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o'g'li	Markaz kasaba uyushmasi kengashi raisi (a'zo)
15	Yunusova Durdona	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti v.b.

Axtamovna	(kengash kotibi)
-----------	------------------

Markaz Kengashi raisi A.Ibragimovning "Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti tinglandi.

Yuqoridagi jadvalda berilgan ro'yxatga asosan, kengash 15 nafar a'zo bilan ishni davom ettiradi.

Kengash raisi A.Ibragimov – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa marhamat.

Ushbu masala atroflicha muhokama etilib Markaz Kehgashi

QAROR QILADI:

1. Kengash raisi A.Ibragimovning "Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Markaz Kehgashi 15 nafar a'zo bilan ishni davom ettirsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri

1/3.2-son

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi
"Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga
qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi
1030-sonli qaroriga asosan oylik ish
haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha
talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha haq kadrlar tayyorlash, shu jumladan, yuqori malakali va ilmiy faoliyat sifatini oshirish va ilmiy faoliyat natijalarini iqtisodiyotning real sektoriga tijoratlashtirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda va xorijda nufuzini oshirishga qo'shgan hissalariga qarab belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan quyida Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi v.b. professori Xaydarov Komil Donaboyevichga markazda tashkil etilgan ishchi guruh xulosasi tavsiya etilgan.

Ilova

№	Talabgor F.I.Sh	Darajasi	Belgilangan foiz
1	Xaydarov Komil Donaboyevich	Falsafa fanlari doktori (DSc), v.b.professor	60 %

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ilmiy-metodik kengash raisi A.Ibragimovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha ustamalar to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Vazirlar Mahkamasining ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 2019-yil 24-dekabr 1030-sonli qarori ijrosi amalga oshirilsin.

3. "Vazirlar Mahkamasining ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 2019-yil 24-dekabr 1030-sonli qarorining ijrosini amalga oshirish yuzasidan ishchi guruh tavsiyasi inobatga olinsin.

4. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası v.b. professori Xaydarov Komil Donaboyevichga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdağı 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi qaroriga asosan qo'shimcha haq to'lansin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova va bosh hisobchi B.Norovga:

5.1. Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası v.b. professori Xaydarov Komil Donaboyevichga qo'shimcha haq to'lash 1030-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirilsin.

5.2. Mazkur talablar yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlarga nisbatan ham faoliyati natijalariga va ish faoliyati davomida ilmiy, ilmiy-pedagogik va tashkiliy-metodik natijalariga ko'ra tatbiq etib borilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash Markazning akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri

1/3.3-son

**“Zamonaviy ta’lim: PIRLS va TIMSS”,
“Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuv”,
“Boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi”
nomli maqsadli qisqa muddatli kurslarning
o‘quv dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i H.Bekmirzayevning
““Zamonaviy ta’lim: PIRLS va TIMSS”, “Maktabgacha ta’limda STEAM
yondashuv”, “Boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi” nomli maqsadli qisqa
muddatli kurslarning o‘quv dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi ma’lumoti
eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi
boshlig‘i H.Bekmirzayev so‘zga chiqdi: – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus
ta’lim metodikasi kafedrası professor-o‘qituvchilari tomonidan ““Zamonaviy
ta’lim: PIRLS va TIMSS”, “Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuv”,
“Boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi” nomli maqsadli qisqa muddatli
kurslarning reja va dasturlarini tasdiqlash uchun taqdim etilgan. Dasturlarda
maqsadli qisqa muddatli kurslarning mohiyatidan kelib chiqib, uning maqsadi,
vazifasi, talablari yoritib berilgan.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Markaz Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i
H.Bekmirzayevning ““Zamonaviy ta’lim: PIRLS va TIMSS”, “Maktabgacha
ta’limda STEAM yondashuv”, “Boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi”
nomli maqsadli qisqa muddatli kurslarning o‘quv dasturini tasdiqlash
to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. “Zamonaviy ta’lim: PIRLS va TIMSS”, “Maktabgacha ta’limda STEAM
yondashuv”, “Boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi” nomli maqsadli qisqa
muddatli kurslarning o‘quv dasturlari tasdiqlansin.
3. Maqsadli qisqa muddatli kurslarning faoliyati tasdiqlangan ish reja
asosida tashkil etilsin.
4. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash Maktabgacha boshlang‘ich va
maxsus ta’lim metodikalari kafedrası mas’ullarining zimmasiga yuklatilsin.
5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o‘z zimmasiga qoldiraman.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi

Q A R O R I

2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri

1/3.4-son

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchi,
bo'lim xodimlari tomonidan va ustoz-shogird
tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini
tasdiqlash to'g'risida**

Kengash kotibi D.Yunusovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchi, bo'lim xodimlari tomonidan va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.4 bandi Markaz professor-o'qituvchi, bo'lim xodimlari tomonidan va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida bo'lib, bu bo'yicha markaz professor-o'qituvchilari va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan uslubiy qo'llanma va uslubiy ko'rsatmalar kengash tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

Markaz kafedra professor-o'qituvchilari, bo'lim xodimlari tomonidan va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib kafedra bayyonomalaridan ko'chirmalar va ma'lumotnomalar taqdim qilingan.

1	S.Yuldasheva	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy savodxonlikni rivojlantirishga oid tavsiyalar	T.: Sh.Xudakulova – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti. I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	72 bet
2	N.Yunusova S.Nasimova	Tabiiy fanlarni o'qitishda 5E modeli asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish	T.: G.Dushanova –Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Biokimyo instituti dotsenti, b.f.n. I.: D.Ibodullayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası o'qituvchisi.	38 bet
3	N.Abduraimov a	Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish	T.: O.Ochilov - Samarqand shahar 81-maktab direktori I.: G.Fayzullayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika,	42 bet

			psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri, dotsent.	
4	J.Oripov S.Azamatov	Tarbiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish	T.: D.Mirzayeva – Samarqand shahar 14-maktab direktori. I.: G'.Tagayev - Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	20 bet
5	N.Ruziyeva	Tasks for inclusive education	T.: F.Davronov – Samarqand davlat veterinariya meditsina, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Xorijiy tillar kafedrası v.b. dotsenti. I.: M.Raximova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası v.b. mudiri, dotsent.	36 bet
6	T.Zaynizoda	O'quvchilarda PISA topshiriqlarini yechish ko'nikmalarini shakllantirish	T.: A.Xujanov – Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Biokimyo instituti dotsenti. I.: N.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi.	24 bet
7	Sh.Giyasova	Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni oshirishda eng samarali usullar	T.: D.Mavlonova – Samarqand shahar informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan 9-sonli tayanch maktab direktori. I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	20 bet
8	R.Buranova	Eng qadimgi davrni o'qitishda 4K yondashuvi asosida darslarni tashkil etish.	T.: M.Xashimova – Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti dotsenti. I.: G'.Tagayev – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	24 bet
9	Z.Pulatova	5E yondashuv asosida dars	T.: M.Xolmirzayev –	20

		mashg'ulotlarini tashkil etish	O'zbekiston-Finlandiya Aniq va amaliy fanlar fakulteti Kimyo kafedrasi o'qituvchisi. T.: R.Sanayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi.	bet
10	U.Narkulov	Friday CPD Programme for English Teachers	T.: Q.Xakimov – Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili nazariyasi aspektlari kafedrasi katta o'qituvchisi. I.: M.Raximova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi v.b. mudiri, dotsent.	58 bet
11	T.Zaynizoda	Odam va uning salomatligi darslarida SAT (so'rovga asoslangan ta'lim), 5E va Kipling yondashuvini qo'llash	T.: A.Xujanov – Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Biokimyo instituti dotsenti. I.: N.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi.	30 bet
12	N.Shanazarova O.Murodova	O'zbek tili 2-sinf mashq daftari	T.: G.Djumanova – Samarqand shahar 33-umumta'lim maktabi oliy toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi. I.: D.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi v.b. dotsent.	66 bet
13	M.Pulatova	Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quv strategiyalarini o'rgatish ko'nikmasini rivojlantirish	T.: A.Ibragimov – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori, pedagogika fanlari doktori. I.: K.Hasanova – Samarqand davlat universiteti Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi professori.	128 bet

Qo'lingizdagi qaror loyihasi bo'yicha fikr va savollar bo'lsa marhamat.

Yuqoridagilar muhokama etilib va Markaz Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kengash kotibi D.Yunusovanning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchi, bo'lim xodimlari tomonidan va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagogika markazi professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Uslubiy qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası				
1	S.Yuldasheva	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy savodxonlikni rivojlantirishga oid tavsiyalar	T.: Sh.Xudakulova –O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti. I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	72 bet
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası				
2	N.Yunusova S.Nasimova	Tabiiy fanlarni o'qitishda 5E modeli asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish	T.: G.Dushanova –Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Biokimyo instituti dotsenti, b.f.n. I.: D.Ibodullayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası o'qituvchisi.	38 bet
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası				
3	N.Abduraimova	Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish	T.: O.Ochilov - Samarqand shahar 81-maktab direktori I.: G.Fayzullayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri, dotsent.	42 bet

3. Pedagogika markazi professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishlarini "Uslubiy ko'rsatma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası				
4	J.Oripov S.Azamatov	Tarbiya fanini o'qitishda intergaol usullardan foydalanish	T.: D.Mirzayeva – Samarqand shahar 14-maktab direktori. I.: G'.Tagayev - Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	20 bet
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası				
5	N.Ruziyeva	Tasks for inclusive education	T.: F.Davronov – Samarqand davlat veterinariya meditsina, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Xorijiy tillar kafedrası v.b. dotsenti. I.: M.Raximova – Samarqand	

			viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası v.b. mudiri, dotsent.	
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi				
6	T.Zaynizoda	O'quvchilarda PISA topshiriqlarini yechish ko'nikmalarini shakllantirish	T.: A.Xujanov – Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Biokimyo instituti dotsenti. I.: N.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi.	24 bet
7	Sh.Giyasova	Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni oshirishda eng samarali usullar	T.: D.Mavlonova – Samarqand shahar informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan 9-sonli tayanch maktab direktori. I.: M.Raximqulova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	20 bet
8	R.Buranova	Eng qadimgi davrni o'qitishda 4K yondashuvi asosida darslarni tashkil etish.	T.: M.Xashimova – Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti dotsenti. I.: G'.Tagayev – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent.	24 bet
9	Z.Pulatova	5E yondashuv asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish	T.: M.Xolmirzayev – O'zbekiston-Finlandiya Aniq va amaliy fanlar fakulteti Kimyo kafedrası o'qituvchisi. T.: R.Sanayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi.	20 bet
10	U.Narkulov	Friday CPD Programme for English Teachers	T.: Q.Xakimov – Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili nazariyasi aspektlari kafedrası katta o'qituvchisi. I.: M.Raximova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish	58 bet

			metodikasi kafedrası v.b. mudiri, dotsent.	
11	T.Zaynizoda	Odam va uning salomatligi darslarida SAT (so'rovga asoslangan ta'lim), 5E va Kipling yondashuvini qo'llash	T.: A.Xujanov – Samarqand davlat universiteti tasarrufidagi Biokimyo instituti dotsenti. I.: N.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi.	30 bet
12	N.Shanazarova O.Murodova	O'zbek tili 2-sinf mashq daftari	T.: G.Djumanova – Samarqand shahar 33-umumta'lim maktabi oliy toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi. I.: D.Yunusova – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası v.b. dotsent.	66 bet

4. A.Ibragimovning ilmiy rahbarligidagi Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti M.Pulatovanning tayyorlagan nashr ishi "Uslubiy qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

13	M.Pulatova	Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quv strategiyalarini o'rgatish ko'nikmasini rivojlantirish	T.: A.Ibragimov – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori, pedagogika fanlari doktori. I.: K.Hasanova – Samarqand davlat universiteti Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrası professori.	128 bet
----	------------	---	---	---------

5. Pedagogika markazning barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- Markaz professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan uslubiy qo'llanmalarni nashr me'yorlari asosida tayyorlash hamda chop etishni tashkillashtirish;
- nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markazning ARMga belgilangan (uslubiy qo'llanma 15 ta, uslubiy ko'rsatma 30 ta) nusxasini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. Nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markaz saytiga joylashtirish axborot resurs markazi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosi nazorati akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S. Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

A.Ibragimov

Kengash kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-fevralda o'tkazilgan yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 27-fevral
Samarqand shahri

1/3.5-son

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat
markazi direktorining Koreya Milliy ta'lim
universiteti hamda "Tabassum qilayotgan
yeryong'oq bolalar jamg'armasi" taklif xatiga
binoan Koreya davlatiga tashrifi to'g'risida**

Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktorining Koreya Milliy ta'lim universiteti hamda "Tabassum qilayotgan yeryong'oq bolalar jamg'armasi" taklif xatiga binoan Koreya davlatiga tashrifi to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramov so'zga chiqdi: – Koreya Milliy ta'lim universiteti hamda "Tabassum qilayotgan yeryong'oq bolalar jamg'armasi" taklif xatiga binoan 2025-yil 10-15-mart kunlari Koreya davlatiga Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktorining tashrifi rejalashtirilgan bo'lib, tashrif davomida quyidagi ishlarni amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

- universitet ta'lim tizimi, kasbiy rivojlanish uchun yaratilgan sharoitlar, o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, mavjud o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan yaqindan tanishish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda uzoq muddatli potentsial hamkorlik aloqalarini muhokama qilish va yo'lga qo'yish;

- Pedagogik mahorat markazida onlayn va oflayn shaklda konstruktivizm, loyiha asosidagi o'qitish (PBL), teskari o'qitish, dizayn fikrlash kabi zamonaviy o'qitish nazariyalari va ularni real darslarda qo'llash usullari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yordamida dars dizayni va uni amalga oshirish, raqamli darsliklar, onlayn o'quv platformalari va ta'limiy dasturlarni ishlatish, bajarilgan ishga asoslangan va jarayonga yo'naltirilgan baholash usullari, vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etish; matematika, tabiiy fanlar, ingliz va koreys tilini o'qitishda zamonaviy ta'lim tendensiyalari, chuqur kontent yaratish va samarali o'qitish strategiyalari bo'yicha treninglar o'tkazish yuzasidan kelishuvga erishish.

Tashrifning Koreya davlatida bo'ladigan qismi Koreya Milliy ta'lim universiteti tomonidan moliyalashtirilishi belgilangan.

Shu munosabat bilan, markaz direktori Ibragimov A'lamjon Amrilloyevichga joriy yilning 10-15-mart kunlari Koreya davlatiga xizmat safarini amalga oshirish hamda borish va kelish bilan bog'liq xarajatlarni (faqatgina aviachipta to'lovi) budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplanishiga ruxsat berishingizni so'raymiz (Koreya Milliy ta'lim universiteti hamda "Tabassum qilayotgan yeryong'oq bolalar jamg'armasining taklif xati,

dastur va reja ilova qilinadi). Yuqoridagilar muhokama etildi va markaz Ilmiy-metodik kengashi

QAROR QILADI:

1. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktorining Koreya Milliy ta'lim universiteti hamda "Tabassum qilayotgan yeryong'oq bolalar jamg'armasi" taklif xatiga binoan Koreya davlatiga tashrifi to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Markaz direktori Ibragimov A'lamjon Amrilloyevichga Koreya davlatiga xizmat safarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar (faqatgina aviachipta to'lovi) budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplab berilsin.

3. Mazkur hujjatlarning Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim etish bosh hisobchi B.Norov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari A.Xurramov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova